

## KIMYO FANINI O'QITISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani*

*50 -maktab ingliz tili fani o'qituvchisi*

***Irgashov Yusuf Boboxonovich***

**Annotatsiya:** Talabalarda kimyo faniga bo'lgan qiziqish va mehr va predmetga mas'uliyatli munosabat uyg'otish, kimyo fanining hozirgi davrdagi roli va o'rni haqida to'g'ri tasavvur shakllantirish haqida.

**Kalit so'zlar:** Ko'nikmalarini tekshirish, o'zlashtirish saviyasi, pedagogik jarayon.

Improving the teaching of chemistry on the basis of pedagogical technologies

**Abstract:** To arouse students' interest and love for chemistry and a responsible attitude to the subject, to form a correct idea of the role and place of chemistry in modern times.

**Keywords:** Skills test, mastery level, pedagogical process.

Kirish: Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo`lgan ta`lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo`lidan borayotgan mamlakatimizning uzlusiz ta`lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko`tarish, unga ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta`lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. “Ta`lim to'g`risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi bilan uzlusiz ta`lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Ma`lumki, uzlusizlik va uzviylik ta`lim tizimda ortiqcha takroriylikka chek qo`yib, avvalo jamiyatning ma`naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning

barqaror rivojlanishini ta`minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o`quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinushi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o`z kasbiy tayyorgarligini, maxoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi. Uzluksiz ta`lim chuqur, har taraflama asosli ta`lim-tarbiya berish, mutaxassis kadrlar tayyorlashning turli shakl, usul, vosita va yo`nalishlarining mukammal uyg`unligidan iboratdir. Uzluksiz ta`lim sifatini turli komponentlar o`rtasidagi o`zaro aloqadorlik, muayyan usullar va uslublarning ta`lim jarayoniga oqilona tatbiq etilishi ta`minlaydi. Ta`limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab o`quvchining dasturiy bilim, tasavvur va ko`nikmalari asosida mustaqil ishslash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o`quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg`ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o`quvchilarni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishslashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda. Ta`limning bugungi vazifasi o`quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot – ta`lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko`rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o`rgatishdan iboratdir. Buning uchun uzluksiz ravishda mustaqil ishslash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. O`zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo`lidan borayotgan bir paytda ta`lim sohasida amalgam oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyashdan iboratdir. Shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatib kelingan edi. Bunday usul o`quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish tashabbuskorlikni so`ndirar edi. Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol uslublar (innovation pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalaniib, ta`limning samaradorligini ko`tarishga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo`llanilgan mashg`ulotlar o`quvchilar egallayotgan bilimlarni

o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O`qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o`quv jarayonida o`quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagog-olimlarning yillar davomida ta`lim tizimida Bugungi kunda ta`lim muassasalarining o`quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e`tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir: *Birinchidan*, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta`limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da rivojlantiruvchi ta`limni amalga oshirish masalasiga alohida e`tibor qaratilgan. *Ikkinchidan*, pedagogik texnologiyalar o`quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi. *Uchinchidan*, pedagogik texnologiya o`qituvchini ta`lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo`lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi. *To`rtinchidan*, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo`llashga asoslanganligi sababli, ularning qo`llanilishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarini amalga oshirishni ta`minlaydi. O`quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to`g`ri joriy etilishi o`qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o`qituvchidan ko`proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o`quv-tarbiya jarayonida qo`llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o`quvchini kim o`qitayotganligi va o`qituvchi kimni o`qitayotganiga bog`liq. Pedagogik texnologiya asosida o`tkazilgan mashg`ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o`z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrashga, o`z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo`layotgan innovasion jarayonlarda ta`lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi

axborotni o`zlashtirish va o`zlashtirgan bilimlarini o`zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta`lim muassasalarining o`quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o`qitish uslublari interfaol uslublar, innovasion texnologiyalarning o`rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta`limda qo`llanishiga oid bilimlar, tajriba o`quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo`lishlarini ta`minlaydi. Innovasion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoluyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalilaniladi. Interfaol (“Inter” – bu o`zaro. “act” – harakat qilmoq) – o`zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo`lishni anglatadi. Boshqacha so`z bilan aytganda, o`qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo`lib, unda ta`lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo`ladilar, ular biladigan va o`yayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo`ladilar. Interfaol darslarda o`qituvchining o`rni qisman o`quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo`naltirishga olib keladi. Oliy ta`lim muassalarida kimyo ta`limi pedagogik jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo`lib, ta`limning umumiy maqsadlariga muvofiq o`quvchi shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi. Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida ta`lim- tarbiya sohasini isloh qilish natijasida to`plangan tajribalar, chiqarilgan bir qator xulosalar asosida amaldagi ta`lim-tarbiya tizimini hozirgi taraqqiyot va kelgusidagi talablar darajasiga ko`tarishga, uni takomillashtirishga jiddiy e`tibor berish zarurligi ta`lim-tarbiyaning uzluksizligini ta`minlashdan kelib chiqib, «Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi» va «Ta`lim to`g’risida»gi Qonun O’zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida muhokama qilindi va tasdiqlandi. Shu munosabat bilan barcha o’quv predmetlari qatori kimyo ta`limi oldiga ham aniq vazifalar qo’yildi. «Ta`lim to`g’risida»gi Qonunga muvofiq: 1. Oliy ta`lim muassalarida kimyo ta`limi konsepsiyasini qayta ishlab chiqish; 2. Oliy ta`lim muassalarining kimyo ta`limi konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, uning standartini ishlab chiqish taqozo

qilinadi. Kimyo ta'limi standarti kimyo o'quv predmetining majburiy mazmunini belgilab beradi. Asosiy qism: Oliy ta'lim muassalarining kimyo ta'limi standarti, kimyo ta'limi tizimidagi barcha komponentlarni: ta'limning mazmuni, maqsadi, ta'limning Kimyo ta'limi konsepsiyasiga muvofiq kimyo ta'limining yo'nナルishi va maqsadi yosh avlodning kimyo fani asoslarini chuqur egallashi, o'quvchilarning siyosiy - g'oyaviy, estetik, ekologik tarbiyasi, tabiatga va jamiyatga bo'lган ijobiy munosabat, qadimgi yashab ijod etib o'tgan buyuk mutafakkirlar, keyingi yillarda olimlarimizning kimyo sohasidagi erishgan yutuqlariga oid o'quv materiallari bilan tanishtirib borish orqali vatanga bo'lган e'tiqodni shakllantirish, kasbga yunaltirish ko'zda tutiladi. Kimyo ta'limi standarti-kimyo o'qitishda o'quvchilarga beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmuni negizini belgilovchi ko'rsatkichlar, shuningdek o'quvchilarning tayyorgarlik darajasidagi bilim va amaliy faoliyatları darjası me'yорини belgilaydigan mezon bo'lib hisoblanadi. Kimyo ta'limi standarti - umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tuziladigan kimyo ta'limi dasturi va o'quv materiallarining hajmini belgilab beruvchi mezon bo'lib xizmat qiladi. Kimyo ta'limi standarti - kimyo ta'limida o'qituvchilarning davlat va jamiyat oldidagi vazifalari, burchi va javobgarligini qay darajada his qilishlari mezoni bo'lib ham hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining kimyo ta'limi standarti-kimyo o'quv predmetidan o'quvchilarga beriladigan bilimlar miqdori, o'quvchilar egallaydigan bilim, hosil qiladigan amaliy ko'nikma va malakalar hajmini ko'rsatuvchi me'yор bo'lib, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi kimyo ta'limi negizini belgilovchi ko'rsatkichlar o'quvchilarning kimyo ta'limidan tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasidan iborat bo'lган hujjat tariqasida tasdiqlanadi va xizmat qiladi. Xulosa: Kimyo darslarida talabalarda bilim va ko'nikmalarini tekshirish va baholashda test sinovlari muhim o'rinn tutadi. O'quvchilardan kimyoviy testlarni olishda ularning o'zlashtirish darajasiga qarab, test topshiriqlarini tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Test topshiriqlarida nazariy savollar bilan birga kimyoviy masalalardan foydalanish yaxshi samara beradi, chunki o'quvchilar bunday masalalarni yechayotganda o'zlarining nazariy

bilimlariga tayanib, mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradilar. Guruhdagi har bir o'quvchining bilim va ko'nikmalariga qarab test materiallarini tuzish ularning o'zlashtirish darajasining yanada yaxshilanishiga olib keladi. O'zlashtirish saviyasi yaxshiroq bo'lgan o'quvchilarning test topshiriqlariga nisbatan murakkabroq masalalardan kiritish bilan ularning bilim saviyasini yanada oshirish mumkin. O'zlashtirish saviyasi o'rtacha bo'lgan o'quvchilarga nisbatan engilroq masalalr berib, keyinchalik ular e'tiborini ancha qiyinroq masalalarni yechishga qaratish mumkin. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun o'tilgan mavzulardagi asosiy kimyoviy tushunchalarni o'zida mujassam etuvchi yengil masalalar berib, ularni masalalarni yechish usullarini o'rganishga jalb qilish kerak.

#### References

1. Davlat ta'lif standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 1999, 3-son.
2. I.R. Asqarov. Organik birikmalar nomenklaturasi va izomeriyasi.- T.: O'qituvchi, 1995.
3. I.R. Asqarov., K. G'ofurov., va boshqalar. Kimyodan test. T.: O'qituvchi, 1997.
4. A.G. Muftaxov. Organik kimyodan olimpiada masalalari va ularning yechimlari.
5. Jurayeva, M. N. BO 'LG 'USI MATEMATIKA O 'QITUVCHILARIGA NOAN'ANAVIY TA'LIM METODLARINI O 'QITISH HAQIDA. ILMIY AXBOROTNOMA, 186.
6. Jurayeva, M. (2017). Matematik analiz fani bo'yicha talabalarning mustaqil ishini tabaqalashtirish. Scienceweb academic papers collection.
7. Jurayeva, M. (2017). МАТЕМАТИК АНАЛИЗ АСОСЛАРИ МАСАЛАЛАРИНИ ЕЧИШНИНГ НОАНЬАНАВИЙ УСУЛЛАРИНИ ЎРГАТИШ ХАКИДА. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya.
8. Jurayeva, M. (2018). БЎЛҒУСИ МАТЕМАТИКА ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ МЕТОДИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КОНТЕКСТЛИ ТОПШИРИКЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. Scienceweb academic papers collection.
9. Jurayeva, M. (2020). БЎЛҒУСИ МАТЕМАТИКА ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ МАВЗУНИНГ ЎҚУВ МАТЕРИАЛИНИ МАНТИҚИЙ-МАТЕМАТИК ТАҲЛИЛИНИ БАЖАРИШГА ЎРГАТИШ УСУЛЛАРИ. QarDU Xabarlari.
10. Jurayeva, M. (2021). BO'LG'USI MATEMATIKA O'QITUVCHILARIGA DIALOGLI TEXNOLOGIYANI O'RGATISH HAQIDA. Mathematical and Computational Sciences